



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

KOGNITIV TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ZARURATI

G‘aniyeva Adiba Tursinboy qizi
Urganch innovatsion universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda ta‘lim jarayonida kognitiv texnologiyalardan foydalanish, talablarda tanqidiy, taxliliy fikrlashni rivojlantirish va bir qator olimlarning kreativ fikrlashni shakllantirishga oid qarashlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kreativ fikrlash, kognitiv texnologiyalar, refleksiya, ta‘lim texnologiyalari, aqliy-intellektual salohiyat, refleksiv faoliyat, ta‘lim, tarbiya, ko‘nikma, motiv.

ПСИХОЛОГИЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПОСРЕДСТВОМ КОГНИТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ганиева Адиба Турсинбой кизи
Ургенчский инновационный университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье описывается развитие творческого мышления у учащихся и использование когнитивных технологий в образовательном процессе, требования к развитию критического и аналитического мышления, а также взгляды ряда ученых на формирование творческого мышления.

Ключевые слова: Творческое мышление, когнитивные технологии, рефлексия, образовательные технологии, умственный и интеллектуальный потенциал, рефлексивная деятельность, образование, воспитание, навыки, мотивация.

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL NEED FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS THROUGH COGNITIVE TECHNOLOGIES

G‘aniyeva Adiba Tursinboy qizi
Urgench Innovation University, Lecturer

Abstract

This article describes the development of creative thinking in students and the use of cognitive technologies in the educational process, the development of critical, analytical thinking in requirements, and the views of a number of scientists on the formation of creative thinking.

Keywords: Creative thinking, cognitive technologies, reflection, educational technologies, mental and intellectual potential, reflexive activity, education, upbringing, skills, motive.

O‘quv-biluv jarayonini maqsadlardan kelib chiqqan holda loyihalash va samarali tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ta‘lim jarayonining maqsadga yo‘naltirilganligi bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlashga tayyorgarlikni kuchaytirib, bilishga bo‘lgan ichki motivlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ma‘lumki, kreativ fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilarga refleksiya qilish, mustaqil bilim olish, o‘z fikrini erkin va asosli bayon etish, ijodiy faollik ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratadi. Shu sababli kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalar ta‘lim mazmunida o‘z ifodasini topib, o‘quv materialini sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim etiladi. Mazkur sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv predmeti mazmunini kreativ o‘zlashtirish jarayoni jadallashadi. Kreativ fikrlash natijasida ularning ijtimoiy tajribasi boyib, ijodiy layoqatlari namoyon bo‘ladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish bo‘lajak o‘qituvchilarga turli ijodiy imkoniyatlarni ochib beradi, ijodiy xulq-atvor tajribasining shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlashning rivojlanishi ta‘limda shakllanayotgan yangi pedagogik paradigma doirasida yanada faollashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Pedagog va psixolog olimlar bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘ziga xos algoritmlarini ishlab chiqishga intilmoqdalar. Xususan, M. Maxmudov, B. Adizov, E. G‘oziyev, M. Davletshin, Ye.V. Bondarevskaya,

M.V. Klarin, G.A. Kovalev, I.A. Kolesnikova, N.A. Mitina kabi olimlarning tadqiqotlarida didaktik jarayonning mazkur jihatlari atroflicha yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchini majmualari rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon an'anaviy didaktik yondashuvlardan tubdan farq qiladi. Ushbu jarayonning innovatsionligi bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini maqsadli rivojlantirishga yo'naltirilganligi, ularni faollashtirish imkoniyatlarining kengligi hamda bilimlarni kognitiv qabul qilish algoritmlarini samarali qo'llashga sharoit yaratishi bilan tavsiflanadi [3].

Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv faoliyat tajribasini shakllantirish asosida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Bu holat o'quv jarayonining asosiy, oraliq va yakuniy maqsadlarida uzviy tarzda aks etishi lozimligini taqozo etadi. Refleksiya orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z bilish faoliyatini anglaydi, natijalarni tahlil qiladi va ularni takomillashtirish yo'llarini belgilaydi. Bo'lajak o'qituvchi har doim muayyan ijtimoiy-madaniy mavqega ega shaxs sifatida shakllanadi. U madaniy boyliklarni egallash jarayonida o'zining ijtimoiy tajribasini kengaytiradi va shu asosda kreativ fikrlash funksiyasini amalga oshiradi. Madaniy merosni o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchida olamni estetik idrok etish, go'zallik va yaratuvchanlikni qadrlash kabi sifatlarni shakllantiradi. Kreativ fikrlash bo'lajak o'qituvchi ijobiy shaxsiy fazilatlarini mujassamlashtiradi. Ushbu sifatlarni, asosan, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashning rivojlanishi, shuningdek, oilaviy tarbiya va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy va ijodiy faolligi ortadi. Har bir bo'lajak o'qituvchi mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash orqali o'zligini anglash, o'zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kreativ fikrlash tizimli pedagogik jarayonlarda bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar narsa-buyumlar va voqea-hodisalarning mohiyatini anglab, ularga ijodiy yondashish usullarini egallaydilar. S.L. Rubinshteyn ta'kidlaganidek, shaxsning tahliliy faoliyati kreativ fikrlashning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash faoliyati ularni muvaffaqiyatga yetaklovchi muhim omilga aylanadi. Maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda shakllangan tanqidiy va kreativ fikrlash mas'uliyatlilik, ishchanlik, faollik hamda voqea-hodisalarga ijodiy yondashish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlash faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv layoqatlarini namoyon etishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada har bir talabaning bo'lajak o'qituvchi sifatidagi tajribasi, kreativ fikrlash layoqati va ijodiy faolligi izchil rivojlanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash layoqatini rivojlantirish muammosi ustida izlanish olib borgan pedagog va psixologlar E. G'oziyev, M. Davletshin, Z. Nishonova, A. Maslou, K. Rodjers, V. Frankl, shuningdek, pedagoglardan B. Adizov, J. Musayev, G. Boymurodova va boshqalar mazkur faoliyatning o'ziga xos psixologik va pedagogik jihatlarni ilmiy jihatdan asoslab berganlar [8, 52-b.].

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash darajasi ularning o'quv faolligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarining shakllanganligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, bo'lajak o'qituvchilarning o'z imkoniyatlarini ongli ravishda namoyon etishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning aqliy-intellektual rivojlanish darajalari pedagogik jihatdan tahlil qilingan bo'lsa-da, ularning kreativ rivojlanish darajalari, asosan, ijodiy harakatlarni mustaqil amalga oshirish, madaniy muloqotga kirishish, jamiyat a'zolari va tengdoshlarining ijtimoiy tajribasini kognitiv o'zlashtirish hamda o'zaro boyitish jarayonlari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon mazmunan kognitiv tavsifga ega bo'lib, u bilish, idrok, tahlil va refleksiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tashkil etiladi. Kreativ fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar o'z rivojlanish jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash natijasida bo'lajak o'qituvchilarning xulq-atvori va emotsional kechinmalarida yuzaga keladigan o'zgarishlar, uning kasbiy shakllanishiga ta'siri hamda didaktik jarayonlarga ta'sir mexanizmlari yetarlicha tizimli o'rganilmaganligi mazkur muammoning dolzarbligini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash jarayoni ijtimoiy voqelik bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Ushbu voqelik pedagogik jarayonda xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasi sifatida namoyon bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishga xizmat qiladigan o'zaro aloqador pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Mazkur shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilar o'z his-tuyg'ulari va kechinmalariga tayangan holda kreativ fikrlaydilar hamda kreativ faoliyatni amalga oshiradilar. Kreativ faoliyat imkoniyatlari sifatida bo'lajak o'qituvchilarning o'z qarashlarini ijodiy bayon etishlari, his-tuyg'ulari va kechinmalarini kreativ

mahsulotlarda aks ettira olishlari, turli ijodiy ishlanmalarni yaratishlari namoyon bo'ladi. Bunday faoliyat natijasida bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikka xos shaxsiy sifatlar shakllanadi. Kreativ fikrlash ko'nikmalari, asosan, muloqot, dialog va hamkorlikdagi ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonida ko'lamli axborotlarni ijodiy o'zlashtirishlari, kognitiv layoqatlarini faollashtirishlari zarur. O'quv materiallari va qo'shimcha axborotlar asosida bo'lajak o'qituvchilar o'zaro muloqot va dialogga kirishib, yaratilayotgan ijod mahsulotlarining shaxsiy va kasbiy ahamiyatini anglay boshlaydilar. Ayniqsa, axloqiy-estetik yo'nalishdagi o'quv materiallari bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. Kreativ fikrlash bo'lajak o'qituvchilarda tahliliy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltiradi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda dialogga kirishish, muammolarni tahlil qilish, o'z kechinmalarini asosli bayon etish, ijodiy mahsulotlar yaratish kabi kognitiv faoliyat tajribasi shakllanadi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv vaziyatlarini tizimli tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday pedagogik vaziyatlarda bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tahliliy faoliyat tajribasining shakllanishi esa ularning o'z harakatlarining mazmun-mohiyatini anglashlariga xizmat qiladi.

Muayyan pedagogik jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari kreativ fikrlash ko'nikmalarining tizimli shakllanishiga xizmat qilishi zarur. Ushbu materiallarni puxta o'zlashtirish va kognitiv idrok etish bilangina kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. O'quv vaziyatlarini tizimli tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarga o'z kechinmalari va his-tuyg'ularini erkin ifodalash imkonini beradi. Kreativ fikrlash ko'nikmalari tanlash, baholash, qaror qabul qilish, emotsional holatlarni namoyon etish kabi faoliyat turlari orqali rivojlanadi. Shu sababli o'quv materiallari mazmuniga bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi didaktik vositalar va bilimlarni integratsiya qilish zarur. Ushbu jarayonda o'qituvchining vazifasi bo'lajak o'qituvchilarning bilimlar va ijtimoiy tajribani kognitiv o'zlashtirish jarayonlarini oldindan loyihalashdan iborat bo'lib, bu kreativ fikrlashni shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi [6, 120-b.]. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vositalar sirasiga kognitiv texnologiyalar, madaniy qadriyatlar hamda badiiy-estetik yo'nalishdagi bilimlar kiradi. Mazkur axborotlar, qadriyatlar va badiiy-estetik mazmundagi bilimlar ta'lim mazmunining tayanch qismi, ya'ni uning makro-mazmunini tashkil etishi lozim. Chunki bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashning shakllanishi ta'lim mazmuni bilan bir qatorda o'zbek xalqining madaniy-ijtimoiy tajribasini ham kognitiv o'zlashtirish jarayoniga bevosita bog'liqdir. Bunda madaniy meros, ijtimoiy tajriba, axloqiy-estetik qadriyatlar bo'lajak o'qituvchining tafakkur doirasini kengaytirib, ijodiy yondashuvlar uchun semantik asos yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni tanlashda pedagoglar muayyan didaktik qoidalarga amal qilishlari lozim. Eng avvalo, ta'lim jarayonida kreativ muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday muhit bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faollikka undaydi va kreativ fikrlash ko'nikmalarining tizimli shakllanishiga zamin yaratadi. Xususan, o'quv jarayonida ma'lum vaqt oralig'ida bajariladigan ijodiy topshiriqlarni belgilash, muvaffaqiyat vaziyatlarini tashkil etish, o'zaro musobaqalashuv va baholash madaniyatini shakllantirish, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik sharoit yaratish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, iqtidorli bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari tezroq rivojlanib, izchil va barqaror namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olimov Q.T. va boshq. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi: oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
3. Tilakova M.A., Eshmuradov O.E. Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari // Scientific Progress. – 2021. – Vol. 1. – Issue 6.
4. Tojiyev M., Tolipov U. va b. Pedagogik texnologiya. 1-qism. – Toshkent: Ishonch, 2008.
5. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI, 2020.
7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.
8. Yusupova G.Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish tizimi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Nukus, 2022. – 52 b.